

**“O’YIN BOLANING PSIXOLOGIK DUNYOSINI ANGLASH
VOSITASI SIFATIDA”**

Akbarova Umida Akramjonovna

*Namangan shahar 4-son texnikumi “Tabiiy Gumanitar va
maxsus fanlar kafedrası” o’qituvchisi*

Tel: +998934952573

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar — ya’ni 3-7 yoshli tarbiyalanuvchilarning ruhiy va emotsional rivojlanishida o’yinning o’rni, bolaning ichki kechinmalari, yashirin qo’rquvlari, ehtiyojlari va ijtimoiylashuv jarayonini tushunishda muhim diagnostik va terapevtik vosita sifatida talqin etilishi, bolalar psixologiyasida o’yin diagnostikasining nazariy va amaliy jihatlari yoritilib, o’yin orqali bolaning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash tahlil qilinadi.

Abstract: This article interprets the role of children of preschool age—specifically those aged 3 to 7—as a significant diagnostic tool in psychology for understanding their mental and emotional development, personal inner experiences, and hidden fears, as well as for fostering social development processes.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль детей школьного возраста — то есть детей 3-7 лет — в их умственном и эмоциональном развитии, личном внутреннем опыте, скрытых страхах, а также роль детей как важного инструмента для развития диагностической психологии в процессе формирования социальных отношений.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, o’yin faoliyati, bola psixologiyasi, psixodiagnostika, o’yin terapiyasi, emotsional rivojlanish, ijtimoiylashuv, ichki kechinmalar.

Keywords: preschool education, play activity, child psychology, psychodiagnostics, play therapy, emotional development, socialization, inner experiences.

Ключевые слова: дошкольное образование, Игровые занятия, детская психология, психодиагностика, игровая терапия, эмоциональное развитие, социализация, внутренние переживания.

Bolalik — inson shaxsining poydevori qo’yiladigan, uning emotsional, intellektual va ijtimoiy xususiyatlari jadal shakllanadigan davrdir. Kichik yoshdagi bolalar o’zlarining ichki kechinmalari, qo’rquvlari, ehtiyojlari va murakkab his-tuyg’ularini kattalar kabi so’zlar va mantiqiy mulohazalar orqali ifodalashda qiyinchilikka duch kelishadi. Shunday ekan, bolaning ichki ruhiy dunyosini anglash va uning psixologik holatini baholashda eng samarali vosita o’yin faoliyati hisoblanadi. O’yin shunchaki vaqt o’tkazish yoki ko’ngilochar mashg’ulot emas. Psixologiya fanida o’yin bolaning yetakchi faoliyati, uning tashqi olamni anglash va o’zini namoyon etishning tabiiy shakli sifatida e’tirof etiladi. Mashhur psixolog L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, bola o’yinda o’z yoshidan ko’ra "bir bosh baland" harakat qiladi va uning rivojlanish zonasi aynan o’yin

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

orqali namoyon bo'ladi. Maqolaning maqsadi o'yin faoliyatining bola psixologiyasidagi diagnostik va korreksion imkoniyatlarini tahlil qilish hamda o'yin orqali bolaning ichki dunyosini anglash mexanizmlarini yoritib berishdan iborat.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Bolalar psixologiyasida o'yin faoliyati ko'plab olimlar: D.B. Elkonin, J. Piazhe, Z. Freydlar tomonidan tadqiq qilingan. D.B. Elkonin o'zining syujetli-rolli o'yinlar nazariyasida o'yin orqali bola kattalar dunyosini, ularning munosabatlari va ijtimoiy rollarini modellashtirishini ko'rsatib bergan. O'yin davomida bola ixtiyoriy ravishda ma'lum qoidalarini qabul qiladi, bu esa unda o'z-o'zini boshqarish va emotsional nazorat ko'nikmalarini rivojlantiradi. Psixanalitik



yondashuv vakillari esa o'yinni bolaning psixik travmalari va yashirin agoniylarini bartaraf etish hamda uning ichki nizolarini tashqi olamga chiqarish mexanizmi sifatida baholaydilar.

Bola o'yinda mutlaqo erkin va samimiy bo'ladi. Aynan shu sababli o'yin jarayoni psixolog va pedagoglar uchun boy diagnostik material beradi. Bolaning o'yin jarayonidagi xatti-harakatlarini kuzatish orqali quyidagi psixologik xususiyatlarni aniqlash mumkin, ya'ni, bola tanlagan syujet va o'yinchoqlar orqali undagi xavotirlik, agressiya, depressiv holatlar yoki xursandchilik namoyon bo'ladi. Masalan, o'yinchoqlarga nisbatan shafqatsiz munosabat bolaning muloqotdagi muammolari yoki zo'ravonlikka duch kelayotganini ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari bola "oila-oila" o'yinida o'z oilasidagi haqiqiy muhitni va otasining munosabatlarini aks ettiradi. U o'ziga berilgan rolda yoki atrofdagilar bilan muomalada haqiqiy tuyg'ularini namoyon etadi.

Tengdoshlari bilan o'yin jarayonida bolaning yetakchilik sifatleri, hamkorlik qilish qobiliyati yoki aksincha, ijtimoiy ajralganligi va tortinchoqligi yaqqol ko'rinadi.

O'yin faoliyati nafaqat diagnostika, balki bolalar psixoterapiyasi ya'ni o'yin terapiyasining ham asosiy instrumentidir. Bola o'yin orqali to'planib qolgan salbiy



energiyasini, g'azab va qo'rquvini xavfsiz muhitda namoyon etadi. Nafaqat o'zini his tuyg'ularini balki, o'yindagi turli vaziyatlarni qayta-qayta o'ynab ko'rish orqali o'zi uchun qiyin bo'lgan holatga yechim topishga harakat qiladi.

Xulosa qilinganda, o'yin maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning shaxsiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida shunchaki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ularning ichki ruhiy dunyosini anglash va tushunishning eng samarali va tabiiy kalitidir. Bola o'zi boshdan kechirayotgan emotsional kechinmalar, qo'rquvlar va yashirin agoniyalarni so'zlar orqali ifodalashga qiynalgan vaziyatda, o'yin jarayoni uning o'ziga xos "tili" vazifasini bajaradi. Bundan tashqari ta'lim va tarbiya jarayonida o'yin faoliyatining diagnostik va korreksion imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish bolani psixologik jihatdan sog'lom, ijtimoiy faol va har tomonlama barkamol shaxs bo'lib kamol topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Ilk qadam" davlat maktabgacha ta'lim dasturi
2. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.
3. Выготский Л. С. *Воображение и творчество в детском возрасте.* — Москва: Просвещение, 1991. — 93 с.
4. Эльконин Д. В. *Психология игры.* — 2-е изд. — Москва: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 1999. — 360 с.
5. Nishonova Z. T., Alimova G. K. *Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi.* — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. — 336 b.

Internet manbaalari:

1. Pedagogika.uz
2. Ziyonet
3. Google Scholar